



UMIDNING SO'NGGI YAPROG'I

*Bahodirova Parizoda Umidjon qizi**"...urush noming o'chsin jahonda..."**Zulfiya*

Erta bahor kunlari... Havo salqin, inson diliqa xush bag'ishlovchi, atrof naqadar toza va suvlarning shildirashii inson ko'nglini mavjantirib yuboradi.

Har kim o'z yumushi bilan band ,lekin aksariyat insonlar ya'ni ko'plab onalar, yosh bolalar urushga ketgan akalari va otalarini ko'zi to'rt bo'lib kutmoqda.Chunki bugun urushga ketganlarning barchasi qaytib keladi. Har kimning quvonchi ichi sig'mas va ba'zilarning diliqa xiralik ham tushgan edi. Axir buni urish deb qo'yibdilar-da, ketgan odamning kelishi amrimahol kelganda ham to'rt muchchasi sog' omon bo'lib kelmas edi. Qishloqning bir chetidagi uyda ,supacha ustida Sanobar aya va uning quvnoq kichik bo'lsa-da, ko'p narsaga aqli yetuvchi nevarasi- Mumtoza o'tirgan edi. Mumtoza otasi kelishini ko'zi to'rt bo'lib kutayotgan va hayajoni ichiga sig'mayotgan edi. Lekin ne ko'z bilan qarangki, uch kun oldin uning otasi Akromdan qoraxat kelgan edi. Avvaliga Sanobar aya buni o'qidi-da yuragi chil-chil bo'lib sindi qanchalik yig'lagani holis Alloh va o'ziga ayon . Lekin buni nevarasi Mumtozadan sir tutdi. Mumtoza ertalab mакtabiga ketayotib buvisiga sevinch ko'zlari bilan shunday dedi:

-"Buvijon men mакtabga ketyapman ,bugun uchta besh baho olaman va dadam urishdan kelsa, ularga ko'rsataman, ular bu baholarimni ko'rib juda juda xursand bo'ladilar,"- dedi.

Sanobar aya Mumtozaning yonib turgan ko'zlariga mayus boqdi-da va bu ma'yuslikni yashirish uchun:

-Albatta, nevaraginam, albatta" ,-dedi bundan boshqa hech narsa deya olmadi.

Mumtoza ishtiyoq va xursandchiliklar bilan uyga qaytdi va buvisiga qarab aytdiki:



-Buvijon mening ikkita dugonamning dadasi urushdan kelibdi, ularga chiroqli qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlar olib kelibdi mening ham dadam bugungi baholarimni ko‘rib sovg‘alar olib keladi to‘g‘rimi? Dadajonim bularni ko‘rib juda ham xursand bo‘ladi"-dedi. Sanobar aya nevarasiga qarab:

- Bo‘lmasamchi ,nevaraginam ,albatta dadang keladi,"- dedi.

Shom tushar vaqtি bo‘lgan edi kechaning qorong‘uligi inson ko‘nglini ezar, mayin shabboda esa insonning bag‘riga astagina urib turar edi. Mumtoza dars qilmoqchi edi, ammo bir daftarini topolmadi. Rosa qidirdi, so‘ngra buvisining xonasiga kirib, uni qidirmoqchi bo‘ldi ne ko‘z bilan qarangki buvisining stoli ustida bir konvertga ko‘zi tushdi. Mumtoza hali kichkina uchinchi sinf bo‘lishiga qaramasdan o‘qish yozishni juda yaxshi bilar edi, u xatni oldida ichini o‘qiy boshлади. Mumtoza avvaliga u xatni o‘qib tushunmadi ,lekin ... o‘zini tiyib turolmay ko‘zlaridan daryodek yosh keldi. U tashqariga shunday otolib chiqqandiki xuddiki urushdagi miltiqdan dushmanga qarata otilgan o‘qdek edi buvisining oldiga bordi, buvisining ko‘zlariga qaradi-da ortiq sukut saqlab turolmasdan shunday yig‘ladiki buni ko‘rgan Sanobar aya Mumtozaga qo‘shilishib qattiq yig‘ladi.

" Yo‘q ishonmayman mening dadam tirik ular o‘lmaganlar bu xato yozilgan"- deb baqirdi.

Bahor ortiq ularga go‘zallik va nafislik taratolmayotgandek ko‘ringandi.

Mumtoza tashqariga chiqqanda dugonalarining sevinib o‘ynayotgan o‘yinchoqlarini ko‘rib yuragi i ezilar edi. Har kungidek u maktabdan qaytdi, vaholanki ,u har kungidan ham ko‘proq baho olgan edi, afsuski...Asta-sekin sumkasini eshik tagiga qo‘ydi-da, supachada o‘tirgan buvisining oldiga borib tizzasiga bosh qo‘ydi. Ikkalalari tiniq osmonga qarar, qaldirg‘ochlar uchishini tomosha qilar va qalblari ezilib- ezilib mayin shabboda bilan hamohang bo‘lib havoda suzishardi. Birdan " Qizalog‘im Mumtoza" degan ovoz eshitildi. Mumtoza dadasini shu qadar ko‘p o‘ylagan ediki tushiga kirardi hattoki qulog‘iga dadasining ovozi ham eshitilar edi. Ammo dadasi bu hayotda emas edi. Lekin ana o’sha"Qizalog‘im Mumtoza!!!" degan ovoz yana eshitildi. Mumtozaning ko‘nglli allanechuk bo‘lib ortiga o‘girildi . Taqdirning va Allohning mo‘jizasini qarangki darvoza oldida haqiqatdan ham



Mumtozaning otasi Sanobar ayaning o'g'li Akrom turar edi. Akrom akaning qo'lida bir talay sovg'a- salomlar turgan edi, avvaliga Mumtoza bunga ishona olmadi hattoki kulimsirab, ko'zlarini ishqaladi ,lekin haqiqatdan ham bu uning otasi edi. Mumtoza yugurib borib dadasingin quchog'iga otildi, Sanobar aya ham sevinchdan ko'zlariga yosh oldi.

Aslida dadasidan kelgan "qoraxat" Akromga tegishli emas ,balki boshqa manzil bilan adashtirilgan edi.

Bu voqeal Mumtozaning hayotida bir umrga oltin harflar bilan yozishga arzigulik voqeal bo'lib qoldi.